XORAZM TARJIMA MAKTABI: SHAKLLANISHI, VAKILLARI VA AHAMIYATI

Muallif: ***No'monjonova Muxlisa***

Tashkilot: Andijon Davlat Chet tillari Instituti (ADCHTI), Tarjima nazariyasi va amaliyoti (TNA)

Anotatsiya. Ushbu matnda XIX asrda Xiva xonligida rivojlangan Xorazm tarjima maktabining tarixi , vakillari va ijodiy uslubi haqida ma'lumot beriladi . Shuningdek, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi ijodkorlarning Xorazm tarjima maktabiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi . Chig'atoy (eski o'zbek) tiliga tarjima qilingan arab-fors tillaridagi tarixiy yilnomalar, badiiy va axloqiy asarlar bilan birgalikda maktabning erkin tarjima tamoyili, til boyligi va mualliflik hissasi kabi o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi hamda uning o'zbek adabiy tili va tarixshunosligi taraqqiyidagi ahamiyati baholanadi.

Kalit so'zlar: Xorazm tarjima maktabi, Xiva xonligi, Munis, Ogahiy, Bayoniy, badiiy tarjima, chig'atoy tili, tarixnavislik.

Abstract

This text examines the history, representatives, and creative style of the Khorezm translation school, which developed in the Khanate of Khiva in the 19th century. It also analyzes the contributions of Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahi, Muhammad Yusuf Bayoni, Komil Khorezmi, and other authors to the Khorezm translation school. Alongside the historical chronicles, literary works, and ethical writings translated from Arabic and Persian into the Chagatai (Old Uzbek) language, the school's distinctive features are presented, such as the principle of free translation, linguistic richness, and the translators' authorial contribution. The

significance of the school for the development of the Uzbek literary language and historiography is also assessed.

Keywords: Khorezm translation school, Khanate of Khiva, Munis, Ogahi, Bayoni, literary translation, Chagatai language, historiography.

Аннотация

В данном тексте представлена информация об истории, представителях и творческом стиле хорезмской переводческой школы, развивавшейся в Хивинском ханстве в XIX веке. Также анализируется вклад Шермухаммада Мунис, Мухаммада Риза Агахи, Мухаммада Юсуфа Баяни, Комила Хорезми и других авторов в хорезмскую переводческую школу. Наряду с историческими хрониками, художественными и нравственными произведениями, переведёнными с арабского и персидского языков на чагатайский (староузбекский) язык, показаны особенности школы: принцип свободного перевода, языковое богатство и авторский вклад переводчиков. Также оценивается значение школы для развития узбекского литературного языка и историографии.

Ключевые слова: хорезмская переводческая школа, Хивинское ханство, Мунис, Агахи, Баяни, художественный перевод, чагатайский язык, историография.

Kirish. O’zbek madaniyati tarixida muhim ahamiyatga ega bo’lgan Xorazm tarjima maktabi XlX asrda Xiva xonligida ravnaq topgan. Bu yerda tarjima qilish oddiy matnni boshqa tilga o‘girish emas, balki ijodiy ish sifatida qaralgan. Fors va arab tillaridagi tarixiy va adabiy asarlar chig‘atoy, ya’ni eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Natijada bu asarlar ko‘proq odamlar uchun tushunarli va o‘qishga qulay bo‘lgan. Maktab vakillari nafaqat tarjima bilan shug‘ullangan, balki o‘z davrining tarixiy voqealarini ham yozib qoldirgan. Shuning uchun Xorazm tarjima maktabi tarjimachilik va tarixnavislikni birlashtirgan muhim ijodiy muhit hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha sabablar bilan bog‘liq. Birinchidan, hozirgi kunda tarjima va turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xorazm tarjima maktabining ko‘p yillik faoliyati o‘zbek xalqida tarjimachilik an’analari qadimdan shakllanganini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, bu maktab vakillari yaratgan tarjima asarlari o‘zbek adabiy tilining rivojlanishini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Uchinchidan, ularning asarlari Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega.

Maqolaning asosiy maqsadi Xorazm tarjima maktabining qanday ravnaq topgani, asosiy vakillari va tarjima qilish usullarini o’rganishdan iborat.

2. Xorazmning tarixiy va madaniy muhiti.

Xorazm tarjima maktabining paydo bo’lishida ko’p yillar davomida rivojlanib kelgan ilmiy va adabiy an’analar asos bo’lgan.Xorazm qadimdan ilm-fan rivojlangan hududlardan biri hisoblangan.X-Xl asrlardagi Ma’mun akademiyasining faoliyati Xorazmda ilm-fanga bo‘lgan qiziqishning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. XIX asr ijodkorlari ham shu an’analardan foydalanib, ularni davom ettirgan.

XIX asrda Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Bu davrda saroyda adabiyot, tarix va san’atga katta e’tibor berilgan. Xonlar va amaldorlar shoir, olim va boshqa ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlagan. Bu esa tarjima ishlarining rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratgan.

Tarjimaga ehtiyojning asosiy sabablaridan biri fors tilidagi tarixiy va adabiy asarlarni o‘zbek tilida o‘qish imkoniyatini yaratish edi. Chunki bu asarlarni hamma ham fors tilida o‘qib, tushuna olmagan. Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali ko‘proq odamlar foydalanish imkoniga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, Xiva xonlari o‘z davri va davlat tarixini yozib qoldirishga ham katta ahamiyat bergan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Muhammad Rahimxon II, ya’ni Feruz davrida Xivada madaniy hayot yanada rivojlangan. Feruzning o‘zi ham she’rlar yozgan va

shoir hamda olimlarni qo‘llab-quvvatlagan. Uning davrida kitob chiqarish ishlari ham rivojlangan. 1870-yillarda Xivada toshbosma matbaa ishga tushirilgan. Bu esa tarjima va tarixiy asarlarning ko‘proq tarqalishiga yordam bergan.Umuman olganda, Xorazm tarjima maktabining shakllanishiga uchta asosiy omil : qadimdan mavjud bo‘lgan ilmiy va adabiy an’analar, saroy tomonidan ijodkorlarga berilgan yordam va asarlarni o‘zbek tilida o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj sabab bo’lgan.

3.Maktabning shakllanishida Shermuhammad Munis va Ogahiy faoliyati.

Xorazm tarjima maktabining rivojlanishida Shermuhammad Munisning o’rni beqiyos. U tarjimon, shoir va tarixchi sifatida xonlik tarixini o’rganib, “Firdavs ul-iqbol” asarini yoza boshlagan. Bilimga qiziquvchi va iqtidorli yoshlarni to’plab, ularni ijod qilishga va tarjima bilan shug’ullanishga yo’naltirgan.

Munis vafotidan so’ng uning ishini jiyani Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy davom ettirdi. Tugallanmagan “Firdavs ul-iqbol” asarini nihoyasiga yetkazdi va “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome’ ul-voqeoti Sultoniy”, “Gulshani davlat” kabi tarixiy asarlar yaratdi. Fors tilidagi asarlarni o’zbek tiliga tarjima qilgani sababli Ogahiy maktabning asoschisi hisoblanadi.

Shu qatorida Muhammad Yusuf Bayoniy (“Shajarayi Xorazmshohiy” muallifi), Komil Xorazmiy, shoir-xon Feruz (Muhammad Rahimxon II) hamda ko’plab kotib va xattotlar ham maktab faoliyatida ishtirok etdi.

4.Bayoniy, Komil Xorazmiy va boshqa tarjimonlar.

Ogahiyning yaqin izdoshi sifatida maktabning ikkinchi bosqichini boshqargan tarixchi va tarjimon Muhammad Yusuf Bayoniy Xorazm hukmdorlari tarixi va nasl-nasabiga bag’ishlangan “Shajarayi Xorazmshohiy” asarini yozdi.Bayoniy o‘z ustozlarining an’analarini davom ettirdi. U tarjima bilan tarix yozishni birga olib bordi va o‘z davridagi voqealarni yozib qoldirdi. U uzoq umr ko‘rgani uchun XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi voqealarga ham guvoh bo‘lgan.

Maktab rivojiga homiy va ijodkor sifatida hissa qo'shgan Muhammad Rahimxon ll (Feruz) ham ko'plab she'rlar yozgan , kitobat va matbaa ishlarini qo'llab-quvvatlagan, ijodkorlar uchun sharoit yaratgan.Maktab rivojida Pahlavonniyoz Komil, Avaz Otar o'g'li kabi boshqa ijodkorlar ham faoliyat olib bordi . Bu mualliflarning ayrim asarlari hanuz to'liq o'rganilmaganligi sababli Ularning hissasini aniqlash uchun alohida manbalarga murojaat qilish lozim.Bayoniy, Komil va boshqa ijodkorlarning faoliyati Xorazm tarjima maktabi faqat bir kishiga bog'liq bo'lmaganini ko'rsatadi. Bu an'ana bir necha avlod davomida davom etib, rivojlanib kelgan.

5.Tarjima yo'nalishlari. O'tmish tarixini mahalliy o'quvchiga yetkazish va xonlik tarixini Sharq tarixiy an'anasi bilan bog'lash maqsadida fors tilidagi mashhur solnomalar, xususan Mirxond va Xondamir asarlari turkiy tilga o'girildi.

Badiiy va didaktik asarlar. Sharq mumtoz adabiyotining ibratli namunalari tarjima qilinib, o'quvchilar doirasi kengaydi.

Til masalasi. Fors-tojik tili ilm va tarix tili sanalgan muhitda tarjima turkiy (chig'atoy-o'zbek) tilning ilmiy va tarixiy ifoda imkoniyatlarini oshirdi. Bu o'zbek adabiy tilining boyishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Tarjima usuli. Xorazm tarjimonlari asl matn ma'nosini saqlagan holda uni o'zbek o'quvchisiga tushunarli tarzda yetkazib berishni so'zma-so'z tarjima qilishdan ko'ra afzal ko'rishgan. Tarjima bu qayta ijod qilish va bo'yoqdorlikni oshirish demakdir. Shuning uchun tarjimon bir vaqtning o'zida ijodkorga aylanadi.

Ogahiy tarjimalarida sodda til bilan badiiy ifoda uyg'unligi alohida seziladi.

6.Ahamiyati. Xorazm tarjima maktabining ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

- o'zbek adabiy tili va tarixnavisligi rivojiga hissa qo'shdi;
- qo'lyozma va tosh bosma asarlar orqali madaniy merosni saqladi;

- tarjimada ijodiy yondashuv an’anasini yaratdi;
- zamonaviy o’zbek tarjimashunosligi uchun tarixiy asos bo’ldi

Xulosa.

Xorazm tarjima maktabi saroy homiyligida paydo bo’lgan bo’lsada, ta’siri saroy doirasidan ancha keng hodisadir. Munis va Ogahiy tarjimani oddiy ko’chirma emas, madaniyatlar o’rtasidagi jonli muloqot vositasi deb bildi. Bu meros bugungi tarjimonlar uchun ham ibratli tajriba bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermuhammad Munis. Firdavs ul-iqbol (O’zbekistonda chop etilgan nashrlari).
2. Ogahiy asarlari to’plamlari (“Ogahiy. Asarlar”, turli jildlar).
3. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy (nashrlari).
4. Ogahiy va Bayoniy tarjimachiligiga bag’ishlangan ilmiy maqolalar (O’zbekiston Fanlar akademiyasi nashrlari).
5. Xorazm adabiy muhiti va Ogahiy ijodiga bag’ishlangan monografiyalar va tadqiqotlar.
6. Ogahiy. Riyoz ud-davla, Zubdat ut-tavorix, Jome’ ul-voqeoti Sultoniy, Gulshani davlat (tarixiy asarlarining o’zbekcha nashrlari).
7. Mirxond. Ravzat us-safo; Xondamir. Habib us-siyar (fors tilidagi asl manbalar, Ogahiy va Xorazm tarjimonlari tarjima qilgan solnomalar).
8. Feruz (Muhammad Rahimxon II). She’riy devoni (nashrlari); Komil Xorazmiy ijodiga oid nashrlar.
9. Salomov G’. Til va tarjima. Toshkent: Fan, 1966.
10. Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: O’qituvchi, 1978.

11. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
12. O’zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Toshkent: Fan, 1978–1993.
13. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград: Изд-во АН СССР, 1927.
14. Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia. Leiden: Brill, 2003.